

lanuvchi qit'asining 1-misrasi hazaji musammani musabbag' (ruknlari va taqtisi: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylon V — — — / V — — — / V — — — / V — — ~) vaznida yaratilgan bo'lsa, ayni vaqtida qit'a-

ning qolgan 2-, 3-, 4-misralari shu vaznga yaqin turgan *hazaji musammani solim* (ruknlari va taqtisi: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylon V — — — / V — — — / V — — — / V — — — / V — — —)da bitilgan.

Navoiy she'	ri to'qquz <b>bay-</b>	<b>t+u</b> , o'n bir <b>bay-</b>	<b>t(i)</b> o'n uch <b>bayt</b>
mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun	mafoiylon
<b>Hazaji musammani musabbag'</b>			
Ki, <b>lav-h+uzra</b>	qalam ziynat	berur ul dur	ri maknundin. <sup>6</sup>
Bukim, albat-	ta, yetti <b>bay-</b>	<b>t(i)din</b> o'ksuk	emas, ya'ni,
Tanazzul <b>ay-</b>	<b>la-y+olmas</b> rut-	ba ichra yet-	ti gardundin. <sup>7</sup>
mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun
<b>Hazaji musammani solim</b>			

Qit'ani o'qishda ta'kidlangan o'rirlarning qo'shib yoki cho'zib o'qilishi, shuningdek, **bayt**, **baytdin** kabi so'zlardagi qo'sh undoshning ikkinchisini alohida hijo qilib (**bay-t(i)**, **bay-t(i)-din** singari) talaffuz qilish tush-untililadi. Qit'a tahlili jarayonida Navoiyning vazn ustida ishslash mahoratiga ham to'xtab o'tiladi. Ushbu qit'a tom ma'noda shoirning faxriyalaridan biridir. Chunki she'nda uning barcha g'azallariga ixcham baho berilgan. Qit'ada shoir o'z she'rlarini "durri maknun" deb baholaydi.

Xulosa ornida shuni aytish mumkinki, 10-sinf "Adabiyot" darsligida Alisher Navoiyning 6 ta qit'asi kel-tirilgan. Ular aruz tizimining hazaj, mutaqorib, xafif bahri vaznlarida yozilgan. Qit'alar uchun tanlangan mavzular bir-birini takrorlamaydi.

1. Shayx Ahmad Taroziy. Funun-ul balog'a. Nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov. – Toshkent: Xazina, 1996. 124-bet.
2. Orzibekov R. Lirkada kichik janrlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. 26-bet.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Muxtaras. Nashrga tayyorlovchi S.Hasan. – Toshkent: Fan, 1971. 196-bet.
4. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: Ta'lism-media, 2019. 142-bet.
5. To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 94-bet.
6. Yashirilgan, maxfiy.
7. To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 103-bet.

Ziyodaxon USMANOVA,  
Chirchiq davlat pedagogika  
instituti o'qituvchisi

## ZAMONAVIY TA'LIMNING NEGIZI

Ta'lum tizimidagi o'zgarishlar, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalar jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalari rivojiga xizmat qilishi lozim. Shu maqsadda ta'lum tizimini zamonaviylashtirish, ya'ni o'qitishni optimallashtirish, o'quvchining kompetentligini oshirish, kognitiv bilimlarini kengaytirish, kreativ fikrlashga o'rgatish uchun PISA xalqaro baholash tizimi joriy etilgan.

PISAning asosiy vazifasi muayyan ta'lum tizimidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, ta'lum monitoringini olib borish va ta'lum sifatini oshirish bo'yicha dasturlarni taklif etishdan iborat. PISA o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda fanlarning nazariy masalalarini amalda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish dinamikasini ko'rsatadi. 2000-yildan buyon PISA testlari har uch yilda bir marta o'tkazilishi an'anaga aylangan. O'zbekiston ham 2018-yil 8-dekabrdagi PQ-997-sonli qarorga asosan ushbu xalqaro dasturga a'zo

bo'ldi. 2022-yilda o'tkazilishi mo'ljallangan PISA testlari-da mamlakatimizning 15–16 yosh doirasidagi mifik bitiruvchilari ham ilk marotaba o'z bilimlarini sinovdan o'tkazadi. Ya'ni, 2022-yilda O'zbekistondan jami 300 ga yaqin mifik va 12000 mingdan ziyod o'quvchining bu jarayonda qatnashishi kutilmoqda.

Shu orinda PISA dasturida o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha bilimlari qanday tekshiriladi, de-gan savol tug'iladi. PISAda o'qish savodxonligini tekshirishda asosiy material matn hisoblanadi. Matnlar turlicha: matn, xarita, jadval, diagramma, har xil mavzulardagi rasmlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ular fanning barcha tarmoqlariga doir bo'ladi. Masalan, ba'zi matnlar o'quvchining geografiya va iqtisodga oid bilimlari bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilari siyosat va tarix fanlari ga oid fikrlarga taalluqli bo'lishi mumkin.

Garchi, bugungi kunda PISA ta'lum tizimidagi so'nggi yangilik sifatida e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, milliy peda-

gogikamiz tarixida bu dasturning ilk ildizlarini ko'rishimiz mumkin. XX asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tanazzulning oldini olish maqsadida jadidchilik harakati yuzaga chiqdi. Jadidlar milliy mustaqillikka erishish va taraqqiyot kafolati sifatida, avvalo, ta'lim tizimini isloh qilish masalasini ko'tarib chiqdilar. Yangi usuldagagi maktablarning tashkil etilishi, zamonaviy darsliklар yaratilishi, sinflar kesimida dastur va imtihonlarning tashkil etilishi bevosita jadidlar faoliyati bilan bog'liq. PISA testiga mantiqan yaqin fikr-mulohazalar jadid pedagogikasida o'z aksini topgan. Jumladan, Abdurauf Fitratning jadid usulidagi "Ibtidoiy maktablarning so'ng sinflari uchun mo'ljallangan O'quv darsligi"da o'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, berilgan matn asosida mantiqiy xulosa chiqarish amaliyoti bilan bog'liq jihatlarga ahamiyat qaratilgan. Bu darslikning muhim jihat shundan iboratki, unda faqat insony fazilatlarni ulug'lovchi diniy matnlar va hadislarni bilan cheklanib qolmagan, berilgan matnlar o'quvchilarga ona tillarida butun koinot, siyosat, iqtisodiyot, tarix, falsafa, madaniyat, geografiya, fizika, matematika kabi dunyoviy fanlardan ham bilim olishlariga keng imkoniyat yaratilgan edi. Shu o'rinda e'tiborimizni darslikdan olingen bir matnga qaratsak:

### TURSUN QANDAY BOY BO'LG'AN

*O'g'lum ish seni izlab ketmas, sen ishni izlab ket.*

Tursun o'n besh yashar bir yigit edi. Maktabni biturib chiqdi. Uch-to'rt kun uyiga kelib o'turdi. Ko'rdikim, otasining qo'lindan ish kelmaydir. Singlisi kasal bo'lub yotkan. Yolg'iz onasining uni(ng)-buni(ng) ishini qilib topdig'i ozg'ina oqcha bilan to'rt kishining kun o'tkarmagi qiyin.

Tursun himmatsiz yaramaslardan emasdi. Tog'dek bir yigit onasining emganib keturdig'i nonga ko'z tikib tursunmi? Mana shunga rozi bo'lomazdi. Biror ish topilmikan, deb udan chiqdi. Uning-buning do'konlariga borib qaradi. Kimsa: "Kel o'g'lum, shu ishni qil, oqchani ol", demadi. Tursun shoshib qoldi, o'z holig'a yig'lab keldi. Uyga ketayin dedi, uyolib oyog'larini yerdan ko'tarolmadi. Bir devorga tayanib o'turdi. Boshini qo'liga olib o'yaldi... o'yaldi. Birdan sevinib tura qoldi. Esiga Ergashboyning zovuti kelgan edi. Zovutga qarab yugurdi. To'g'ri Ergashboyning yoniga borib, salom berdi. Ergashboy javob berdi:

– Ha o'g'lum, nima ishing bor? – dedi.

Tursun: – Zovutingizda ishlamoq uchun keldim, boy bobo, – dedi.

Ergashboya ko'p ishchi kerakdi:

– Yaxshi qilibsan, o'g'lum! Mana shu arobaldargi momuq qanorlarini ko'tarib omborga eltil tashlayber. Oqshom shu ishchilarga qancha oqcha bersam, senga ham berarman, – dedi.

Tursun suyindi. Yugurub, arobalar sari ketdi. Qanorlarni toshib, omborga beraberdi. Boshqa ish-

chilardan ko'proq tirishdi. Oqshom bo'ldi. Ergashboy Tursunga iki tanga oshiqroq berdi. Tursun sevina-sevina uyga kelub, oqchalarni onasiga berdi va ishni onglatdi. Bundan so'ng ham har kuni erta bilan zovutga borib, oqshom kunligini olib qayta(r) edi. Oqcha ko'paydi. Kasal bo'lib yotgan singlisi uchun do'qtur chaqirib, davolatdi. U daxi sog'oldi.

Bir kun Ergashboy Tursunni chaqirib, dedikim:

– O'g'lum! Ko'b to'g'ri va ishonchli yigit ekansan. O'quv bilan yozuvning daxi bor ekan. O'zingga yarasha bir ish berayin sanga. Undan keyin yuk tashimoqni qo'y. Mana shu daftarni ol, zavutdag'i ishchilarning cho'tini saqlag'il.

Tursun qabul qildi. Bugun Tursun o'shal zovutning mirzasidir<sup>1</sup>.

Asar tili sodda va, muhimi, o'quvchi uchun yangilik bera oladi. Jadid maktablarining asosiy maqsadi ham Turkiston musulmonlarini har tomonlama zamon bilan hamnafas bo'lishga chorlashdan iborat edi. Ularga fan-texnikanering so'nggi yutuqlarini tanishtirish, dunyo bilan birga rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish, jahon hamjamiyatida munosib o'ringa ega bo'lish uchun, avvalo, ilm olish zarurligi, ilm olganda ham eski maktablardagi kabi quruq yod olish usulida emas, balki o'rgangan ilmini amaliyotda qo'llash bilan bog'liq kompetensiyalarni ham shakkantirish, o'qish jarayonini takomillashtirishga erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan edi.

Bu maqsad hozirgi ta'lim tizimida ham dolzarbligini yo'qotmagan. Jadidlarning ta'lim tizimiga oid islohotlari qisman amalga oshirildi, qatag'on siyosati Turkiston musulmonlarining bu tarzdagi qarashlari, milliy o'zlikni anglashga bo'lgan intilishlari va, ayniqsa, jadid maktablarining erishayotgan yutuqlariga to'siq bo'ldi. Natijada, jadid maktablari va uni yoqlovchi ziyorolar hukumat tomonidan ta'qib ostiga olindi va jadidchilikka barham berildi.

"Tursun qanday boy bo'lg'an" asari matni yuzasidan muallif o'quvchilarga 4 ta topshiriq bilan murojaat etadi (darslikda topshiriq atamasi o'rniida "tamrin" istilohidan foydalanilgan):

1. *Tursun qanday holda edi?*

2. *Nega ish arar(oxtarar)g'a chiqdi?*

Qay ishga kirdi?

Ishchilarning orasindan chiqub mirza bo'lurg'a sabab nima?

O'qish savodxonligida matnni tushunish, undan foydalanish, mulohaza yuritish va munosabat bildirish<sup>2</sup> asosiy tushunchalar sanaladi. Yuqoridagi matnni o'qish davomida o'quvchi matnda ilgari surilgan g'oyani, asosiy mazmunni tushunishi talab etiladi. Tursunning kimligi, fe'l-atvori, oilaviy ahvoli, maqsadi haqida, qanday qilib nochorlikdan qutulib, katta bir zavodning mirzasi lavozimiga ko'tarilgani yuzasidan batatsil ma'lumotga ega bo'ladi. Eng muhimi, darslik ona tilida yozilgan, shuning uchun ham matnlarni tushunish bolaga qiyin-

chilik tug'dirmaydi. Eski maktablarda, asosan, arab va forsiy darsliklardan foydalanilganini hisobga olsak, bu o'sha davrda darslik yaratish bo'yicha chinakam yangilik edi, deyish mumkin.

Matnda ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarga birdek e'tibor qaratilgan. O'quvchi matndan ilmning inson kamolotida nechog'li muhim ahamiyat kasb etishini o'rganadi va unda ilm olishga rag'bat uyg'onadi.

Eski usuldagagi maktablarda aksar hollarda darslar o'qishga, yod olishga qaratilar, har bir mudarris maktabda o'z ichki tartib-qoidalarini joriy etardi. Jadid maktablarda esa darsliklar zamonaviy fan dasturlari asosida yaratilgan va o'qitilgan. Masalan, yangi usul maktablarda quyidagilarga qat'iy rioya qilish lozim bo'lgan:

Sinfda (matabda) bolalar soni o'ttizdan oshmasin.

Bolalarni faqat ikki daf'a – yoz va qish boshlaridagi na qabul qilish mumkin.

Har qabul nechta bo'lishidan qat'i nazar, bir sinf bo'lisin.

Har bir muallimda ko'pi bilan 3–4 sinf bo'lisin.

Agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket, ma'lum uyg'unlikda qo'yilmog'i lozim.

7–9 yoshlardagi bola 7–8 soat uzlusiz o'qiy olmaydi. Uning uchun 5 soat kifoya. Har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus lozim.

Juma va bayram kunlari dam olinadi.

O'n oy o'qishdan so'ng yozning issiq kunlarida ta'til bo'lishi maqsadga muvofiq.

Dars zeriktirmasligi lozim. Besh soat davomida turli besh fandan dars olish og'ir emas, lekin besh soat faqat bir dars bilan mashg'ul bo'lish darsdan bolaning ko'ngli ni sovutadi.

O'quvchilarni urishga, so'kishga hojat yo'q.

Har hafta so'ngida o'quvchiga haftalik baho berish lozim. Hafta davomida darslarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarga a'lo baho qo'ymoq kerak.

Sinfning derazalari katta, ichkarisi esa keng va yorug' bo'lishiga ahamiyat berish kerak... Sovuq xonada dars berish, ilm o'rgatish begunoh bolani jazolash bilan barobardir...<sup>3</sup>

Ko'rinib turibdiki, jadidlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim standartlari o'quvchilarni matabga qabul qilish, sinf xonasining interyeri, partalarning joylashuvi, dars jadvalida fanlarning aks etish holatidan tortib, sinfda o'quvchi-o'qituvchining o'zaro munosabatlarini ham tartibga solib turgan. Jadidlar o'quvchilarga shunchaki matnni o'qishni emas, uning mohiyatini tushunishni, tegishli xulosalar chiqara olishni, olingen bilimni amaliyatga tatbiq etishni ham o'rgatishgan.

Ta'lim tizimini isloh qilishda jadid olimlarining boy ilmiy merosidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Fitratning "Ibtidoiy matablarning so'ng sinflari uchun mo'ljallangan O'quv darsligi"da berilgan matnarning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi tabdilini yaratib, maktab o'quv dasturining sinfdan tashqari o'qish darslarida foydalanishni tavsiya etgan bo'lardik.

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. 90-bet.

2. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent: Sharq, 2019. 13-bet.

3. B.Qosimov, Z.Abdurashidov. Ismoilbek Gasprinskiy (Gasprali). Hayot va mamot masalasi – Toshkent: Ma'naviyat, 2006, 19-bet.

Konisbay YUSUPOV,  
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari doktori

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA QORAQALPOQ ADABIYOTINI O'QITISH MASALALARI

Jahon pedagogika fani jadal rivojlanish va o'zgarishlar yo'lidan borayotgan hozirgi globallashuv jarayonida mamlakatimiz ta'lim sohasi ham jiddiy yangilanishlarga yuz tutmoqda. Bu esa ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or texnologiyalar asosida takomillashtirish, davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq o'quv dasturlari, darsliklar va metodik qo'llanmalar yaratish, adabiyot o'qitish mazmunini yangilashning optimal yo'nalishlarini belgilash, milliy va xorijiy tajribalaridan unumli foydalanish, adabiy ta'limga ilmiy-nazariy, amaliy, estetik va metodik asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu vazifalardan kelib

chiqqan holda umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida qoraqalpoq adabiyotini o'qitish texnologiyasini takomillashtirish, adabiyot darslarida innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarning axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish, nazariy bilimlarini chuqurlashtirish asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish kabi masalalar dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda adabiy ta'lim mazmunini yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillari asosida yuksaltirish, adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish, ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrashga o'rgatish masalalari bo'yicha Q.Yo'idoshev, A.S.Zunnunov, M.Mirqosimova,